

“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
23-mavzu: “Halollik vaksinasi”

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

Annotatsiya: Mazkur dars 9-11-sinf o‘quvchilarida halollik, vijdonlilik, mas’uliyat, adolatga sodiqlik kabi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan. “Halollik vaksinasi” g‘oyasi orqali jamiyat hayotida halollikning ahamiyati, uning inson shaxsiyati va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta’siri haqida tushuncha beriladi. Dars davomida o‘quvchilar real hayotiy misollar, muhokamalar, rolli o‘yinlar va guruhli topshiriqlar orqali halollikning turli ko‘rinishlarini anglaydilar, noto‘g‘ri xatti-harakatlarning oqibatlarini tahlil qiladilar. Mazkur dars o‘quvchilarda sog‘lom ma’naviy immunitet – yolg‘on, firibgarlik, korrupsiya kabi salbiy illatlarga qarshi “ichki vaksina”ni shakllantirishni maqsad qiladi. Mashg‘ulot davomida mustaqil fikrlash, to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda halollik, poklik, vijdonlilik va mas’uliyat tushunchalarini chuqur anglash, ularning kundalik hayotdagi ahamiyatini misollar orqali tushuntirish.
2. Noto‘g‘ri xatti-harakatlar (yolg‘on, firibgarlik, pora, aldov)ning salbiy oqibatlarini anglatish, halol yo‘l bilan muvaffaqiyatga erishish mumkinligini dalillar bilan ko‘rsatish.
3. O‘zbekiston jamiyatida halollikni targ‘ib etish, korrupsiyaga qarshi kurash va ma’naviy uyg‘onish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida aniq tasavvur berish, ularning ahamiyatini tushuntirish.
4. O‘quvchilarda halol yashashga intilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish, vijdon bilan yashash va jamiyat taraqqiyotiga o‘zining mehnati bilan hissa qo‘shish motivatsiyasini kuchaytirish, shaxsiy “halollik immuniteti”ni shakllantirish.

Asosiy g‘oyalar: Halollik – insonning eng kuchli ma’naviy tayanchi, jamiyatning esa taraqqiyot poydevoridir. Halol bo‘lgan o‘quvchi rostgo‘y, adolatli va mas’uliyatli bo‘lib voyaga yetadi; halol bo‘lgan jamiyat esa ishonch, totuvlik va taraqqiyot sari rivojlanadi. “Halollik vaksinasi” – bu insonning ichki immuniteti, ya’ni yolg‘on, pora, aldov, dangasalik va beparvolik kabi illatlardan o‘zini himoya qila olishi demakdir. Har bir o‘quvchi halollikni avvalo uyda, maktabda va do‘stlar davrasida amalda namoyon qilsa, o‘zini ham, boshqalarni ham to‘g‘rilikka chorlaydi. Toza fikr, toza mehnat, toza niyat – Vatan oldidagi eng katta xizmatdir.

Kichik, ammo halol ishlar: darsni vijdon bilan bajarish, o'zgalarning haqqiga tegmaslik, topilgan narsani egasiga qaytarish, navbatga rioya qilish, yolg'on gapirmaslik – bularning barchasi Yangi O'zbekistonning halol va pok kelajagini barpo etishda bizning ulushimizdir.

“Bugun halol yashasam, ertaga jamiyat ham, Vatanim ham undan foyda ko‘radi”.

Darsdan kutiladigan natijalar

1. Aqliy va tushunchaviy

- O‘quvchilar halollik, vijdonlilik, poklik, mas’uliyat tushunchalarini aniq farqlab, ularning shaxsiy hayot, jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o‘rnini izohlab beradilar.
- “Halollik vaksinasi” metaforasining mazmunini tushuntiradilar: salbiy illatlarga qarshi ichki ma’naviy immunitet sifatida sharhlaydilar.
- Yolg'on, firibgarlik, poraxo'rlik, beparvolik kabi xatti-harakatlarning individual va ijtimoiy zararlarini misollar bilan asoslaydilar.
- O'z-o'zini boshqarish va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik tushunchalarini to'g'ri talqin qiladilar.

2. Hissiy va qadriyatli

- Halol yashashga, to'g'ri gapirishga, vijdon bilan harakat qilishga nisbatan ichki ehtiyoj va ijobiy munosabat shakllanadi (“Men halol bo‘lsam – jamiyatga foyda keltiraman”).
- Adolat, ishonch va poklik kabi qadriyatlardan bahra olish, ularga sodiq qolishdan faxrlanish hissi kuchayadi.
- Vatan, jamiyat va atrofdagilarga zarar yetkazmaslik mas’uliyati, o‘zini “xalqning halol farzandi” sifatida his qilish rivojlanadi.

3. Amaliy ko‘nikmalar

- Kundalik hayotda halollikni qo‘llaydi: topilgan narsani egasiga qaytarish, navbatga rioya qilish, belgilangan vazifalarni vijdonan bajarish, yolg'on gapirmaslik, kichik masalalarda ham adolatli bo'lish.
- Muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllanadi (masalan, og'ir vaziyatda ham halol yo'lni tanlash).
- O'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, xatolarini tan olish va ularni tuzatishga harakat qilish odati qaror topadi.

4. Ijtimoiy-pedagogik

- Sinfda “halol va ishonchli muhit” shakllanadi: o‘zaro hurmat, yordam berish, rostgo'ylik, adolatni qo‘llab-quvvatlash kuchayadi.
- Do'stlar, sinfdoshlar va o'qituvchi bilan ochiq, ishonchga asoslangan muloqot odatlari rivojlanadi.

- Guruh ishlari va rolli o'yinlar orqali o'quvchilar bir-biriga halollikning ahamiyatini tushuntiradi, halol xatti-harakatlarni targ'ib qiladi.

- O'quvchi jamiyatda halollik madaniyatini shakllantirishga o'z ulushini qo'shishi mumkinligini anglaydi va shu yo'lda faol bo'lishga intiladi.

Metapredmet: turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llanadigan umumiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. "Halollik vaksinasi" darsida esa bu yondashuv o'quvchilarga halollik, vijdon, mas'uliyat kabi qadriyatlarni turli yo'nalishlar bilan bog'lab tushunishga yordam beradi.

Masalan;

- **Adabiyot:** O'quvchilar halollik, rostgo'ylik va vijdon haqida aytilgan maqollarni topadilar ("Rost so'z – rohat", "Halol mehnat – halol rizq"). Har bir maqolning ma'nosini 1-2 jumlada sharhlab, real hayotiy vaziyat bilan bog'laydilar.

- **Matematika:** "Halol savdo" va "nohalol savdo" misollarini taqqoslab, narx, foyda va zarar orqali halollikning iqtisodiy ahamiyatini tushuntiradilar.

- **Muloqot:** Juftliklarda 20 soniyalik mini-nutq: "Halollik – mening ichki kuchim" mavzusida gapirish.

- **Tarbiya:** Korrupsiya, aldov, pora kabi illatlarning oilaga, jamiyatga va davlatga yetkazadigan zararini xarita (mind-map) tarzida tuzadilar. Shaxsiy "halollik qoidalari" ro'yxatini tuzadilar – 5 ta amaliy qoidani yozib chiqadilar.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. <https://milliytarbiya.uz>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar!

Sizlarga bitta savol.

Tasavvur qiling: bugundan boshlab siz haqingizda hamma haqiqatlar ochilib qoldi. Telefoningiz, yozishmalar, yolg'iz qolganingizdagi xatti-harakatlaringiz, hatto miyangizdagi fikrlaringiz ham.

Bir o'ylab ko'ring. Agar shunday bo'lsa, o'zingizdan uyalarmidingiz yoki xotirjam bo'larmidingiz?

2-3 nafar o'quvchi fikri eshitiladi.

O'qituvchi: Bugungi mavzuning markazida mana shu savol turadi. Chunki halollik – bu odamlar ko'rib turgan paytdagi emas, hech kim ko'rmayotgan paytdagi tanlovdir.

Demak, bugungi mashg'ulotimiz mavzusi – “Halollik vaksinasi”.

*O'qituvchi doskaga “**Halollik vaksinasi**” deb yozadi va so'raydi:*

O'qituvchi: Sizlar “vaksina” deganda nimani tushunasiz? “Sizningcha, nega bu mavzuda “vaksina” so'zi ishlatilgan?”

O'quvchilarning javoblari eshitiladi: “kasallikdan himoya”, “profilaktika”, “immunitet hosil qiladi” va hokazo.

O'qituvchi: Juda to'g'ri! Vaksina tanani kasallikdan himoya qiladi. Endi tasavvur qiling: insonni illatdan, aldovdan, poraxo'rlikdan, yolg'ondan himoya qiladigan vaksina bo'lsa, u qanday bo'lar edi?

Bu davo – halollik.

Bu “vaksina”ni na shifokor, na dorixona beradi – uni har kim o'zi shakllantiradi.

Sizningcha, halol bo'lish osonmi? Nima uchun?

O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar, o'qituvchi ularning javoblarini umumlashtirib, mavzuning mohiyatiga olib kiradi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, ko'chadan ketayotganingizda 5 ming dollar miqdoridagi pulni topib oldingiz. Qanday yo'l tutasiz.

O'quvchilar javob berishadi.

O'qituvchi: Xuddi shu kabi vaziyatda bir yurtdoshimiz tomonidan topilgan pul egasiga qaytarib berganligi haqida eshitganmisiz? Bundan bir yil oldin kun.uz axborot resursi u odam haqida [videorolik](#) tayyorlangan ekan.

Unda aytilishicha, Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida yashaydigan Elmurod Mamirjonov O'zbekiston-Rossiya yo'nalishida odam tashiydi. Taksist bir kuni mijozlarni olib O'zbekistonga qaytayotganida Astraxan shahrida 5 ming dollar

solingan hamyonni topib oladi. U hamyonning egasini topish uchun ijtimoiy tarmoqqa xabarlar chiqaradi. Bir xorazmlik yigit pulning egasi bo‘lib chiqdi. Pullar o‘z egasiga qaytarildi. Dollarlari topilganidan xursand bo‘lib ketgan aka bir qop Xorazm guruchi va 200 dollar suyunchi puli tashlab ketadi.

O‘qituvchi (*quyidagi savollardan istalgan uchtasini o‘quvchilarga beradi va mulohazaga chorlaydi*):

- Sizning fikringizcha, haydovchining bu qarorini qanday baholash mumkin? Uning xatti-harakati nimasi bilan boshqalardan ajralib turadi?
- Agar u pulni egasiga qaytarmaganida qanday oqibatlar bo‘lgan bo‘lardi? (o‘zi uchun, egasi uchun, jamiyat uchun)
- Siz taksistning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutardingiz? Nima uchun?
- Sizning fikringizcha, insonni bunday halol qarorga nima undaydi – qo‘rquvmi yoki vijdonmi?
- Taksistning halol harakati jamiyatda qanday ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin?

O‘qituvchi: Barakalla! Sizlar halollik haqida juda to‘g‘ri va hayotiy fikrlar aytdingiz.

Kelinglar, endi o‘z harakati va bilimi bilan, ya‘ni halol yo‘l bilan katta muvaffaqiyatlarga erishgan, “El-yurt umidi” stipendiyasini yutib Avstraliyada o‘qib huquqshunos bo‘lib kelgan yosh kadrning fikrlariga quloq tutamiz. U halollik, korrupsiyaga qarshi kurashish haqida o‘zi o‘qigan yurt va dunyo tajribasini gapiradi.

Vizual kontent

Avstraliyada o‘qigan yigit hikoyasi (2-qism)

<https://youtu.be/lhZtYOfnbZM>

O‘qituvchi: Bugungi mashg‘ulotda biz halollikning hayotdagi o‘rni, uning odamga va jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida birgalikda o‘rganamiz.

II. ASOSIY QISM. (25 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, qanday halollikka zid bo‘lgan tushunchalarni bilasiz?

O‘quvchilar javob berishadi.

O‘qituvchi: Barakalla aziz o‘quvchilar. Javoblaringizni umumlashtirgan holda quyidagilarni aytib o‘tmoqchi edim.

Halollikka zid bo‘lgan tushunchalar va ularning jamiyatga zarari:

1. Nopoklik – vijdotsizlik, axloqiy tozalikka zid bo‘lgan harakat.

2. Yolg'on – haqiqatni yashirish yoki buzib ko'rsatish.
 3. Aldov – boshqani chalg'itib, shaxsiy foyda olish.
 4. Firibgarlik – qonun yoki ishonchni buzish yo'li bilan foyda ko'rish.
 5. Poraxo'rlik (korrupsiya) – adolatni manfaat evaziga sotish.
 6. O'g'irlik – birovning mol-mulkini noqonuniy tarzda o'zlashtirish.
 7. Xiyonat – ishonchni suiiste'mol qilish, sadoqatsizlik.
 8. Ikkiyuzlamachilik – so'zda boshqa, amalda boshqa bo'lish; samimiylilik yo'qligi.
 9. Vijdonsizlik – o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilmaslik.
 10. Tamagirlik – o'z foydasini boshqalarnikidan ustun qo'yish, manfaatparastlik.
 11. Loqaydlik – yomonlikni ko'rib, indamaslik; halollikni himoya qilmaslik.
 12. Adolatsizlik – tenglik va haqiqat tamoyillarini buzish.
- Kelinglar, endi qaysi xatti-harakatlar halollik-u, qaysilari halollik emas degan mavzudagi videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Halollik: nima yaxshi-yu, nima yaxshi emas! (2-qism)

<https://youtu.be/Eho68wQ6Tiw>

O'qituvchi: Ayniqsa, korrupsiya bugungi kunda jamiyat rivojiga eng katta to'siqdir.

Korrupsiya buzg'unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham insoniy jamiyat qadim zamonlardan boshlab unga qarshi kurashib kelmoqda.

Lotincha “korrupsiya” so'zi o'zbek tilida “yemirilish”, “sotilish”, degan ma'nolarni anglatadi.

Uni keskin cheklagan davlatlar taraqqiyotga erishgan. Xo'sh, biz bunday yutuqqa erisha olamizmi haqiqatan ham, qayerda korrupsiya bo'lsa, shu yerda yemirilish yuz beradi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI

O'qituvchi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil dekabrda o'zining Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida: ***“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz”, – deb ta'kidlab o'tgan edi. Bu nutqda ikki bora***

“halollik vaksinasi” degan ibora tilga olindi. Ya’ni “halollik vaksinasi” iborasining muallifi – hurmatli Prezidentimizdir.

Kelinglar, hozir mamlakatimizda shu yo‘nalishda qilingan islohotlar va natijalar haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘li

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/397

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, sizlarga bir savol bilan yuzlanmoqchi edim. Mamlakatimiz korrupsiya kabi illatlarga qarshi kurashayotgan bir paytda, siz bu kabi illat bilan yuzma-yuz keldingiz. Undan aziyat chekdingiz. Yoki siz tamagirlar, firibgarlar tuzog‘iga tushib qoldingiz. O‘sha vaqtda qaysi davlat idorasiga murojaat qilgan bo‘lar edingiz?

O‘qituvchi bu savol orqali o‘quvchilarning huquqiy savodxonligi qay darajada ekanligini tekshiradi hamda ularning huquqiy madaniyatini oshiruvchi ma’lumot ham berib o‘tadi

O‘quvchilar savollarga javob berishadi.

O‘qituvchi: Barakalla, aziz o‘quvchilar! Sizlarning fikrlaringizni umumlashtirgan holda quyidagilarni ma’lum qilmoqchi edim.

Bosh prokuratura;

Davlat xavfsizlik xizmati;

Davlat bojxona qo‘mitasi;

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;

Ichki ishlar vazirligi;

Adliya vazirligi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy agentligi kabi idoralar yuqoridagi kabi holatlarga tushib qolganda huquqingizni himoya qilish choralari bilan shug‘ullanadi.

JAZONING MUQARRARLIGI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ENG SAMARALI VOSITASI

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, jazoning muqarrarlighi tushunchasini qanday izohlaysiz?

O‘quvchilar savollarga javob berishadi.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, jazo qanchalik og‘ir bo‘lishi emas, balki u muqarrar bo‘lishi korrupsiyani kamaytiradi.

Bu nimani anglatadi?

– kim bo‘lishidan qat’i nazar, mansabdor yoki oddiy fuqaro, qonunni buzsa – jazo albatta qo‘llanadi;

– jazo og‘ir yoki yengilligidan qat’i nazar, uning muqarrar bo‘lishi odamlarni noqonuniy yo‘ldan qaytaradi;

– muqarrarlik – halollikning eng kuchli “vaksinasi”. Chunki, inson bilsa: noqonuniy foyda vaqtinchalik, jazosi esa muqarrar.

Kelinglar, shu o‘rinda Mahliyo va uning jamoasi sud binosidan tayyorlagan reportajni ko‘ramiz.

Vizual kontent

Sud zalidan gapiramiz!

https://youtu.be/IKvGjQHrZ_I

Video muhokama qilinadi.

HALOLLIK VAKSINASI: AMALIY VAZIYATLAR

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, jamiyatda halol insonlar qancha ko‘p bo‘lsa, halollik o‘z-o‘zidan ko‘payib boradi. Masalan siz halol bo‘lsangiz, o‘rtog‘ingiz halol bo‘lsa, butun maktabimiz o‘quvchilari halol bo‘lishsa, hech narsa yo‘qolmaydi, tushirib qoldirilgan pullar yo buyumlar tez egasiga qaytadi, hamma uy vazifasini o‘zi qiladi va bilimli bo‘ladi, birov birovni g‘iybat qilmaydi va hokazo. Ya’ni halollik ko‘p bo‘lsa, avvalo o‘zimizga yaxshi bo‘ladi. Jamiyatda ham shunday – halollik qancha ko‘p bo‘lsa va aynan siz halollik qilsangiz, u sizga albatta qaytadi.

Hozir shu haqida videorolik tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Yaxshilik qachondir qaytadi!

<https://youtu.be/Hntpg8tCn3I>

O‘qituvchi: Hurmatli o‘quvchilar! Bugun biz sizlar bilan halollik, adolat va mas’uliyat mavzulari bo‘yicha amaliy vaziyatlar – keyslarni ko‘rib chiqamiz.

Har bir vaziyatni diqqat bilan o‘qing, o‘zingizni shu holat ishtirokchisi sifatida tasavvur qiling va “Men bu joyda qanday yo‘l tutardim?” degan savolga halol javob berishga harakat qiling.

Eslatma: Keyslar soni 7 ta bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan vaziyatdan kelib chiqib, vaqtni hisobga olgan holda foydalanishi mumkin.

1-keys. “Topilgan pul”

Vaziyat:

O'quvchi Farrux maktab yo'lida 200 000 so'm topib oladi. Atrofdagi hech kim yo'q. U shu pulni uyiga olib ketsa bo'ladi, chunki uyida iqtisodiy qiyinchiliklar bor. Lekin u topilgan buyum yoki pulni maktab ma'muriyatiga topshirish kerakligini ham biladi.

Savollar:

1. Farrux qanday yo'l tutishi kerak? 3 ta variant taklif qiling.
2. Eng halol qaror qaysi? Nima uchun.
3. Agar Farrux pulni egasiga qaytarib bersa, bu uning kelajakdagi odatlariga qanday ta'sir qilishi mumkin?

2-keys. "Testdagi noto'g'ri yo'l".

Vaziyat

Dilnoza fizika fanidan oraliq nazoratga tayyorlanishga ulgurmaydi. Test boshlanishi oldidan yoniga o'tirgan dugonasi telefonida barcha javoblar borligini aytadi va yordam berishni taklif qiladi. Dilnoza biladiki, telefondan foydalangan o'quvchi imtihondan chetlashtiriladi.

Savollar:

1. Dilnozaning oldida qanday tanlovlar turibdi?
2. Unga halol qaror qabul qilishda nima yordam beradi?
3. Dilnoza javoblarni ko'chirsa, bu uning bilimiga va obro'iga qanday ta'sir qiladi?

3-keys. "Do'stlik va halollik".

Vaziyat.

Bahodir va Kamron yaqin do'stlar. Bir kuni Kamron sport zali jihozlarini buzib qo'yadi, lekin buni hech kim ko'rmagan. U Bahodirdan "hech kimga aytma" deb iltimos qiladi. O'qituvchi esa jiddiy tekshiruv boshlaydi.

Savollar:

1. Bahodir nimani tanlashi kerak – do'stining sirini saqlashmi yoki voqeani aytishmi?
2. Do'stlik halollikdan ustun turishi kerakmi? Nima uchun?
3. Agar Bahodir haqiqatni aytsa, bu do'stlikka qanday ta'sir qiladi?

4-keys. "O'zgaralar mehnatini o'g'irlash".

Vaziyat

O'qituvchi "Eng yaxshi loyiha" tanlovini e'lon qiladi. O'quvchi Malika internetdan tayyor loyiha topadi va biroz o'zgartirib, "o'zimning loyiham" deb topshiradi. Uning loyihasi ajoyib bo'lib, yutib olish ehtimoli katta.

Savollar:

1. Malikani plagiat (o'zgalar mehnatini o'g'irlash) qilishga nima undagan?
2. Bu ishning oqibatlari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
3. Agar hakamlar bu holatni bilib qolsa, qanday chora ko'rishlari kerak?
4. Malikaga halol yechim yo'lini taklif qiling.

5-keys. "Ota-onaning ishonchi"

Vaziyat.

Ota-onasi Sardorga "Telefonni faqat dars uchun ishlat" deb topshirgan. Lekin Sardor uydagilar yo'qligida 3-4 soat davomida o'yin o'ynaydi va internetdan foydalanadi. Uyga qaytganda esa "Umuman ishlatmadim" deydi.

Savollar:

1. Sardorning harakati halollik tamoyillariga mos keladimi?
2. U ota-onaning ishonchini yo'qotmaslik uchun nima qilishi kerak edi?
3. Halollik oilaviy munosabatlarda qanday ahamiyatga ega?

6-keys. "Jamoaviy topshiriqda nohalollik"

Vaziyat

5 nafar o'quvchi jamoaviy loyiha ustida ishlashi kerak. Lekin 2 nafar o'quvchi ishlamaydi, faqat 3 kishi ishlaydi. Yakunda natijaga esa o'sha 5 kishi nomidan baho qo'yiladi.

Savollar:

1. Bu vaziyatda jamoa a'zolari qanday muammoni boshdan kechirmoqda?
2. Adolatli yechim qanday bo'lishi mumkin?
3. Jamoat ishida halollikning ahamiyati nimada?

7-keys. "Ijtimoiy tarmoqdagi yolg'on"

Vaziyat

Shahzod Instagramda "aqlli ko'rinish" maqsadida yolg'on postlar qo'yadi: kitob o'qimagan bo'lsa ham, "shu kitobni tugatdim" deb yozadi, go'yo kitob o'qiyotgandek holatdagi suratlari orqali o'zini boshqacha ko'rsatadi.

Savollar:

1. Bunday yolg'onlar insonning o'ziga qanday zarar yetkazadi?
2. Ijtimoiy tarmoqda halollik nima uchun muhim?
3. Shahzodning do'stlari uning yolg'onini bilib qolsa, bu uning obro'yiga qanday ta'sir qiladi?

O'qituvchi: Hademay siz maktabni bitirasiz, kasb tanlaysiz. Shu sababli kelajagingiz uchun muhim savollar haqida gaplashamiz. Bir o'ylab ko'ring-a:

- Agar siz kelajakda shifokor, muhandis yoki davlat xizmatchisi bo'lsangiz, halollik nima uchun eng birinchi tamoyil bo'lishi kerak?"

- Har bir kasbda halollikning o‘rni haqida misol keltiring.
 - Halollikni yo‘qotgan kasb egasi jamiyatga qanday zarar yetkazishi mumkin?
 - Siz uchun halol bo‘lishning eng asosiy sababi nima?
- O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va muhokama qilinadi.*

III. YAKUNIY QISM (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, “Kelinlar qo‘zg‘aloni” filmini ko‘rganmisiz? Satira va yumorga boy bu asarda o‘ta jiddiy, tomoshabinni o‘yga cho‘mdiradigan sahnalar ham bor. Masalan, Farmonbibining uyiga bir ayol keladi, Farmonbibi o‘g‘illarini chaqirib bunday deydi:

- Bolajonlarim, men sizlarga harom tomoq yedirganmanmi? O‘g‘rilik qil deb o‘rgatganmanmi?
- Yo‘q, – deydi bir ovozdan yetti o‘g‘il.
- Bir gapimni ikki qilganmisizlar, o‘rtaga tushsam pora olasizlarmi?
- Oyijon, sizni hurmat qilamiz, lekin bu iltimosingizga yo‘q deymiz.
- Hammalaringga ming rahmat! Ming marta qulluq, – deb Farmonbibi farzandlariga ta‘zim qiladi. Bu ta‘zim zamirida bolalariga halollikdan bergan saboqlari besamar ketmagani, ularning diyonatli va to‘g‘riso‘z bo‘lib ulg‘ayganiga shukronalik tuyg‘usi bor edi.

Bu filmning xalqimiz mehriga sazovor bo‘lganining boisi Farmonbibining yuragi tozaligi, farzandlarini halol luqma bilan boqqani, ularni o‘g‘irlik, harom-xarishdan yiroq bo‘lishga undaganidadir, aslida.

Aslida, bizning milliy adabiyotimiz, teatr va kino san’atimizda halollik, korrupsiyaga, noqonuniy ishlarga, firibgarlik, o‘g‘rilik kabi illatlarga qarshi targ‘ibot kuchli. Bu asarlar bejizga xalqimiz yuragidan joy olmagan. Hozir sizlarga shunday spektakllar tavsiya etilgan videorolikni qo‘yib beraman. Diqqat bilan tomosha qiling va bu asarlarning nomlarini yozib oling. Albatta uydagilar bilan bu spektakllarga tushinglar.

Vizual kontent

Halollik mavzusidagi spektakllar

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/398

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi mashg‘ulot davomida sizlar bilan halollikning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikrlashdik, turli amaliy vaziyatlar orqali to‘g‘ri qaror qabul qilish qanchalik muhimligini ko‘rdik.

Bir narsani unutmasligimiz kerak: halol inson bo‘lish – bu boshqalarga emas, birinchi navbatda o‘zimizga bo‘lgan hurmatimizdir.

Halollik vaksinasi – bu tanlovlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiradigan eng kuchli himoya vositasi.

Siz halol bo‘lsangiz, o‘zingiz ham, atrofingizdagilar ham, butun jamiyat ham yutadi.

Masalan, bugun bir jinoyatchi jinoyatiga yarasha jazo olmasa, pora bilan qutulib qolsa, ertaga u yana shu jinoyatini takrorlaydi. Uni ko‘rgan boshqalar ham jinoyatga jazo muqarrar emas ekan deb noqonuniy ishlarga qo‘l uradi. Natijada, butun jamiyatda noqonuniy ishlar ko‘payadi. Bunda o‘sha jamiyat ichida yashayotgan, jinoyatchini jazodan qutulishiga yordam bergan poraxo‘r ham jabrlanadi. Jinoyatchi uning o‘ziga yoki yaqinlariga va mulkiga zarar yetkazishi mumkin.

Shunday ekan, har bir kuningizni halollik bilan boshlang, qarorlaringizni halollikka tayanib qabul qiling va kelajakni aynan mana shu fazilat bilan qurishga intiling. Halollik – insonning eng katta boyligi, jamiyatning esa eng mustahkam poydevoridir.

Shu bilan darsimiz tamom. Rahmat, aziz o‘quvchilar. Halol bo‘ling, halol yashang va boshqalarga ham halollik namunasi bo‘ling!